



BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTI

Научный вестник Бухарского государственного университета
Scientific reports of Bukhara State University

1/2025



@buxdu_uz



@buxdu1



@buxdu1



www.buxdu.uz



1/2025

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTI
SCIENTIFIC REPORTS OF BUKHARA STATE UNIVERSITY
НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК БУХАРСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА

Ilmiy-nazariy jurnal
2025, № 1, yanvar

Jurnal 2003-yildan boshlab **filologiya** fanlari bo'yicha, 2015-yildan boshlab **fizika-matematika** fanlari bo'yicha, 2018-yildan boshlab **siyosiy** fanlar bo'yicha, **tarix** fanlari bo'yicha 2023-yil 29-avgustdan boshlab O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar Vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiya ishlari natijalari yuzasidan ilmiy maqolalar chop etilishi lozim bo'lgan zaruriy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnal 2000-yilda tashkil etilgan.

Jurnal 1 yilda 12 marta chiqadi.

Jurnal O'zbekiston matbuot va axborot agentligi Buxoro viloyat matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 2020-yil 24-avgust № 1103-sonli guvohnoma bilan ro'yxatga olingan.

Muassis: Buxoro davlat universiteti

Tahririyat manzili: 200117, O'zbekiston Respublikasi, Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko'chasi, 11-uy.

Elektron manzil: nashriyot_buxdu@buxdu.uz

TAHRIR HAY'ATI:

Bosh muharrir: Xamidov Obidjon Xafizovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bosh muharrir o'rinbosari: Rasulov To'liqin Husenovich, fizika-matematika fanlari doktori (DSc), professor

Mas'ul kotib: Shirinova Mexrigiyo Shokirovna, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Kuzmichev Nikolay Dmitriyevich, fizika-matematika fanlari doktori (DSc), professor (N.P. Ogaryov nomidagi Mordova milliy tadqiqot davlat universiteti, Rossiya)

Danova M., filologiya fanlari doktori, professor (Bolgariya)

Margianti S.E., iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Indoneziya)

Minin V.V., kimyo fanlari doktori (Rossiya)

Tashqarayev R.A., texnika fanlari doktori (Qozog'iston)

Mo'minov M.E., fizika-matematika fanlari nomzodi (Malayziya)

Mengliyev Baxtiyor Rajabovich, filologiya fanlari doktori, professor

Adizov Baxtiyor Rahmonovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Abuzalova Mexriniso Kadirovna, filologiya fanlari doktori, professor

Amonov Muxtor Raxmatovich, texnika fanlari doktori, professor

Barotov Sharif Ramazonovich, psixologiya fanlari doktori, professor, xalqaro psixologiya fanlari akademiyasining haqiqiy a'zosi (akademigi)

Baqoyeva Muhabbat Qayumovna, filologiya fanlari doktori, professor

Bo'riyev Sulaymon Bo'riyevich, biologiya fanlari doktori, professor

Jumayev Rustam G'aniyevich, siyosiy fanlar nomzodi, dotsent

Djurayev Davron Raxmonovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor

Durdiyev Durdimurod Qalandarovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor

Olimov Shirinboy Sharofovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Qahhorov Siddiq Qahhorovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Umarov Baqo Bafoyevich, kimyo fanlari doktori, professor

Murodov G'ayrat Nekovich, filologiya fanlari doktori, professor

O'rayeva Darmonoy Saidjonovna, filologiya fanlari doktori, professor

Navro'z-zoda Baxtiyor Nigmatovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Hayitov Shodmon Ahmadovich, tarix fanlari doktori, professor

To'rayev Halim Hojiyevich, tarix fanlari doktori, professor

Rasulov Baxtiyor Mamajonovich, tarix fanlari doktori, professor

Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Quvvatova Dilrabo Habibovna, filologiya fanlari doktori, professor

Axmedova Shoira Nematovna, filologiya fanlari doktori, professor

Bekova Nazora Jo'rayevna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Amonova Zilola Qodirovna, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Hamroyeva Shahlo Mirjonovna, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Nigmatova Lola Xamidovna, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Boboyev Feruz Sayfullayevich, tarix fanlari doktori

Jo'rayev Narzulla Qosimovich, siyosiy fanlar doktori, professor

Xolliyev Askar Ergashovich, biologiya fanlari doktori, professor

Artikova Hafiza To'ymurodovna, biologiya fanlari doktori, professor

Hayitov Shavkat Ahmadovich, filologiya fanlari doktori, professor

Qurbonova Gulnoz Negmatovna, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Ixtiyarova Gulnora Akmalovna, kimyo fanlari doktori, professor

Rasulov Zubaydullo Izomovich, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Mirzayev Shavkat Mustaqimovich, texnika fanlari doktori, professor

Samiyev Kamoliddin A'zamovich, texnika fanlari doktori, dotsent

Esanov Husniddin Qurbonovich, biologiya fanlari doktori, dotsent

Zaripov Gulmurot Toxirovich, texnika fanlari nomzodi, professor

Jumayev Jura, fizika-matematika fanlari nomzodi, dotsent

Klichev Qybek Abdurasulovich, tarix fanlari doktori, dotsent

G'aybulayeva Nafisa Izattullayevna, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

MUNDARIJA *** СОДЕРЖАНИЕ *** CONTENTS		
ADABIYOTSHUNOSLIK *** LITERARY CRITICISM *** ЛИТЕРАТУРОВЕДЕНИЕ		
Астанова Г.А.	“Минг бир кеча” ҳикоятларида ҳинд, эрон руҳияти ифодаси	3
Babayev M.T.	Mavlono Jaloliddin Rumi (Balxiy)ning “Masnaviyi ma’naviy” asaridagi masallarda ilon obrazi	8
Ganiyeva O.X.	J.Styuartning “Another april” hikoyasidagi XX asr AQSh realistik hikoyachiligi xususiyatlari tasviri	14
Karimova D.H., Narziyeva D.R.	Aka-uka Grimm ertaklarining tarjima variantlari xususida (“Bir xumcha shovla” ertagi tarjimasi misolida)	18
Ubaydullayeva R.A.	“Ro‘yo yoxud g‘ulistonga safar” romanida ramziylik va uning ifodalanishi	23
Fayziyeva K.A.	“Muhammad hayoti” romanida badiiylik tasviri	29
Bekova N.J., Faxriyeva D.T.	Chingiz Aytmatov asarlarida ayol qismati tahlili (“Alvido, gulsari”, “Birinchii muallim” qissalari asosida)	33
Xudayberdiyeva M.A.	Fitratning adabiy tur va janrlarga munosabati	37
Qodirova N.S.	Adabiy tanqidchilikda davr uslubi masalasi (jadid tanqidchiligi misolida)	41
Dusanova M.X.	Social And Cultural Context In 20th Century English Literature	48
Naimova A.M.	Mifokeya janr xususiyatlari hamda uning badiiy nasrda formatlashuvi	52
Zayniyeva Y.F.	“Boburnoma” dagi izofiy birikmali hayvonot va nabobot nomlarining inglizcha tarjimalari tahlili	57
Gadoeva M.I., Rahmonova J.M.	Sharq va g‘arb madaniyatlarida “yaxshilik” tushunchasi	62
Sa’dullayeva Sh.A.	Rashod Nuri Guntekin romanlarida o‘qituvchilar obrazi	67
Sabirova G.B.	Ota timsolining oilaviy va ijtimoiy kontekstdagi ahamiyati	71
Nazarova G.P., Sirojeva N.S.	Amerika immigrant janri tarixi	77
Usmonova N.S.	Tez aytish turlari (fransuz tez aytishlari misolida)	82
Shukurova S.O.	An examination of sociological and psychological perspectives on suicide through the works of Émile Durkheim and Zygmunt Bauman	88
Kilicheva M.R.	XIX asr ingliz she’riyatida sharq va islom madaniyati talqini	93
Kodirova S.A.	Ayrim maqollar evolyutsiyasida “Zarbulmasal” maqollarining o‘rni va ahamiyati	99
Рашидова Ф.Р.	Художественный психологизм в творчестве женщин-писательниц викторианской литературы	103
Ахмедова К.А.	Ключевые особенности детских игр узбекского народа	108
Рахимова Н.К.	Бахоуддин Нақшбанд “Авроди шариф”идаги тасаввуф терминлари таҳлили	112
Нармуратов И.,	Максим Горький – великий представитель	116

AKA-UKA GRIMM ERTAKLARINING TARJIMA VARIANTLARI XUSUSIDA ("BIR XUMCHA SHOVL" ERTAGI TARJIMASI MISOLIDA)

Karimova Dilafruz Halimovna,

*Buxoro davlat universiteti nemis filologiyasi kafedrasida
dilafruz.karimova.1975@mail.ru*

Narzieva Dilfuza Ramazonovna,

Buxoro davlat universiteti Lingvistika (nemis tili) yo'nalishi 2-bosqich magistranti

Annotatsiya. Aka-uka Grimmlar nemis xalqining eng sevimli ertakchi-yozuvchilaridandir. Biroq ularning nomi nafaqat nemis o'quvchilariga, balki jahondagi barcha xalqlarga tanishdir. Chunki ularning ertaklari juda ko'p tillarga tarjima qilingan. Mazkur maqolada aka-uka Grimmlarning "Bir xumcha shovla" ertagining o'zbek tiliga tarjima variantlari haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: syujet, folklor, motiv, davr grafikasi, ertak badiiyati, mentalitet, variant tarjima, mikromatn.

О ВАРИАНТАХ ПЕРЕВОДА СКАЗОК БРАТЬЕВ ГРИММ (КАК ПРИМЕР ПЕРЕВОДА СКАЗКИ «ГОРШОЧЕК КАШИ»)

Аннотация. Братья Гримм-любимые сказочники немецкого народа. Однако их имя знакомо не только немецким читателям, но и всем народам мира, потому что их сказки переведены на множество языков. В данной статье рассматривается узбекский перевод сказки братьев Гримм "Горшочек каши".

Ключевые слова: сюжет, фольклор, мотив, старинная графика, сказочное искусство, менталитет, вариантный перевод, микротекст.

ON TRANSLATION VARIANTS OF THE BROTHERS GRIMM FAIRY TALES (AS AN EXAMPLE OF TRANSLATION OF THE FAIRY TALE "SWEET PORRIDGE")

Abstract. The Brothers Grimm are the favourite storytellers of the German people. However, their name is familiar not only to German readers, but to all peoples of the world. Because their tales have been translated into many languages. This article deals with the Uzbek translation of the Brothers Grimm's fairy tale "Sweet Porridge".

Keywords: plot, folklore, motif, period graphics, fairy tale art, mentality, variant translation, microtext.

Kirish. Dunyodagi barcha xalqlar kabi nemis xalqi ham o'z ertaklar dunyosiga va xazinasiga ega. O'ziga xoslik ertak syujeti, voqealarning rivojlanishi va yechimi, ertaklarning boshlanishi va nihoyasi, qahramonlar nomi va voqealar o'zbek xalq ertagiga o'xshab ketadi. Biroq bu o'xshashlik ertaklarimizning betakrorligini, milliy o'ziga xos uslub rang – barangligini inkor etmaydi. Nemis xalq ertaklari deganda, albatta, ko'pchilik o'zbek kitobxonlari aka-uka Grimmlar to'plagan ertaklarni ko'z oldiga keltirishi tabiiy bir holdir, chunki boshqa adib va olimlar yozib olgan, to'plagan hamda nashr ettirgan yuzlab ertak, afsonalar o'zbek tiliga o'girilmaganligi sababli xalqimizga ma'lum emas edi.

Asosiy qism. Yevropada ertaklarni xalq orasidan to'plab, sayqal berib yana xalqqa kitob holatida yetkazib berish yo'lida ko'plab folklorshunos olimlar jonbozlik ko'rsatishgan. Xususan, aka-uka Grimmlar nomi bilan mashhur bo'lgan Yakob (1785-1863) va Vilgelm (1786-1859) Grimmlar xalq og'zaki ijodi namunalari va ertaklarni to'plashgan. Bu jarayonda aka-ukalar turli usullardan foydalanishgan. Yakob ertaklarni asl holida qoldirish tarafdori bo'lsa-da, ukasi Vilgelm ertaklar, asosan, bolalar uchun mo'ljallanganligini hisobga olib, ularni soddalashtirish kerakligini ta'kidlagan. Grimm ertaklari orasida "Oppog'oy", "Zolushka", "Qor qiz", "Gansning baxti", "Quyvon va tipratikan", "Botir tikuvchi", "Bo'ri va tulki"lar juda mashhur. 1812-yilda ular to'plangan, o'zgartirishlar kiritilgan ertaklarni "Kinder und Hausmärchen" ("Bolalar va oilaviy ertaklar") nomi ostida nashr ettirishadi. Bu kitob birinchi jild bo'lib, keyinchalik 1815-yilda ikkinchi jild ham chop ettiriladi. Yuqorida ko'rsatilgan ikki jild 1822-yilda umumlashtirilib uchinchi jild yaratilgan. Grimmlarning uch jildlik kitoblarida ikki yuzdan ortiqroq ertaklar jamlangan bo'lib, unda mualliflar ko'proq afsonaviy, maishiy va hayvonlar haqidagi ertaklarni umumlashtirishga harakat qilganlar. Har bir ertakda saxiylik, mehnatsevarlik, botirlik kabi fazilatlar bilan

birga, qo'rqoqlar ustidan kulish, dangasalik va yolg'onchilikni qattiq qoralash birinchi o'rinda turadi. Shunisi ham quvonchlik, ko'pincha Grimmilar ertaklarining asosiy qahramonlari, shoh va shahzodalar emas, balki kambag'al, beva-bechoralarning o'g'il-qizi, cho'pon yoki askar bo'ladi. Ular o'zlarining ibratomuz ishlari bilan ertak tinglovchida chuqur taassurot qoldiradilar. Umuman, nemis xalq ertaklarini o'zbekchalashtirish asrimizning 40-yillarida boshlanib, asosan, aka-uka Grimmilar ertaklarini o'girish bilan cheklangan. Bu xayrli ishni 1938-yil aka-uka Grimmilar to'plamidan "Botir tikuvchi" ertagini rus tili orqali o'giran Farid Rasulov boshlab bergan va bu tarjima lotin alifbosida bosilgan. Oradan bir yil o'tgach, 1939-yilda Adham Rahmat tarjimasida sakkizta nemischa ertakdan iborat to'plam o'zbek bolalariga tortiq qilingan. Ushbu to'plamdan barchaga mashhur "Bremen muzikachilari", "Bir xurmacha shovla", "Quyvon bilan tipratikan" kabi ertaklar joy olgan. 1940-yilda esa o'zbek bolalar nashriyotida aka-uka Grimmilar "Oltin g'oz" ertagi Vaxob Ro'zimatov tarjimasida chop etildi. Keyingi yillarda (1954, 1963, 1978) aka-uka Grimmilar to'plamidan o'nlab ertaklar tarjima qilinib, o'zbek bolalarining ertaklar dunyosini boyitdi. Shuni aytish kerakki, aka-uka Grimmilar to'plamida jamlangan 210 ertakdan shu paytgacha 30 tacha ertak o'zbekchalashtirilib, bu tarjimalar ruscha tarjima matnidan amalga oshirilgan [4; 297-298]. Ayrim ertaklar, jumladan, "Bremen muzikachilari", "Botir tikuvchi", "Bo'ron kampir", "Quyvon bilan tiptatikan", "Yetti botir" kabi ertaklarning uch-to'rt tarjima muqobillari mavjud. Aka-uka Grimmilar "Bir xumcha shovla" ertagi o'zbek tiliga turli yillarda bir necha bor tarjima qilingan. Ular ko'proq rus tili vositasida o'zbek tiliga o'girilgan. Bu tarjimalar quyidagilardir:

1. O'zbek bolalar shoiri Adham Rahmat tomonidan 1938-yilda amalga oshirilgan vositali tarjima. U o'sha yillarda amalda bo'lgan lotin yozuvida, o'zbek tilida chop etilgan [1; 36-38].

2. Oradan 40 yil o'tib, bu ertak mutarjim mutaxassis Surayyo To'raxonova tomonidan o'zbek tiliga o'girilgan va krill yozuvida 1978-yilda chop qilingan [2; 447].

3. Ushbu ertak 2008-yilda internet sayti orqali ham e'lon qilingan, ammo uning tarjimoni aniq ko'rsatilmagan.

Ertakning shu uchala tarjima nusxasini qiyosiy o'rganish natijasida quyidagi farqli belgilari borligi aniqlandi:

Birinchidan, Adham Rahmat o'zi shoir bo'lganligi uchun ertak badiiyatini saqlashga katta e'tibor bilan yondashgan. Masalan, unda shavlanning oqishi daryo oqishiga o'xshatilgan bo'lsa, Surayyo To'raxonova tarjimasida ariqqa o'xshatilgan. Uchinchi tarjimada esa bunday ifodaning o'zi mavjud emas.

Ikkinchidan, Adham Rahmat so'zlarni aniq qo'llashga harakat qilgan. Masalan, u ertak qahramoni – qizchani o'rmonga aynan maymunjon tergani ketganini aytsa, boshqa tarjimalarda uning o'rnida umumiy ma'no anglatuvchi "meva" so'zi qo'llangan. Bu holat kampirning qizchadan maymunjon so'rashi motivida ham saqlangan.

Uchinchidan, Adham Rahmat ertakni eski lotin yozuvida qayta bayon etgani uchun unda unli va undosh tovushlar o'sha davr grafikasi qonunlariga muvofiq berilgan:

a) unli grafikasida: o – o (ko'p-kop, to'ldi-toldi), o – a (bor-bar, biron-biran) tovushlari o'zgargan holda talaffuzda ifoda etilgan. Rus tili ta'sirida o'zbek tiliga o'zlashgan ya, yo, yu, yo kabi yotlashgan tovushlar bitta j tovushini qo'shish orqali yozilgan. Masalan: ya-ja (kifoya-kfaja), ye-je (yetgunicha-jetgunica), yu-ju (yugurdi-jugurdi), yo-ja (qayoqqa-qajaqqa) kabi;

b) undoshlar grafikasida: g'-q (savqab og'ir-aqir), y-j (to'xtaydi-toxtajdi, qo'yib-qojib, yo'l-jol), ch-s (uch-us, ko'cha-koca), g-q (qolgan – qalqan) bilan almashgan holati kuzatiladi.

To'rtinchidan, talaffuzda qisqa unililarning tushib qolish holati ko'zga tashlanadi: shirin-shrin, shikoyatlanmadi-shkoyatlanmadi.

Beshinchidan, ertak nomi ilk variantda "Bir xurmacha shavla", ikki variantda esa "Bir xumcha shovla" deb ko'rsatilgan. Shuningdek, shavla va shovla so'zlari ham ikki xil yozilgan. Agar "O'zbek tilining izohli lug'ati"ga qaralsa, unda "shovla" so'zi emas, shavla so'zi berilgan. "Shavla" forscha so'z bo'lib, o'zbek tilida o'zlashgan so'zlar qatorida turadi. Shavla guruchdan tayyorlangan yumshoq osh yoki go'sht, sabzi-piyoz va guruch solib pishiriladigan bo'tqasimon ovqat turini anglatadi. [7; 565]

Xurmacha, odatda, qatiq ivitish, sut solib qo'yish uchun ishlatiladigan qo'shquloq sopol idishni bildiruvchi xurma so'ziga otlarga qo'shiladigan -cha kichraytirish shakli qo'shimchasini qo'shishdan hosil qilingan. Xurma+cha=xurmacha so'zi kichik xurma ma'nosini anglatadi.

Xumcha so'zi ham shu tarzda hosil qilingan. U fors-tojikcha katta ko'za ma'nosini bildiruvchi xum+cha=xumcha so'ziga aloqador. Xum biror suyuqlik, don va shu kabilarni saqlash uchun turli kattalikda yasaladigan, og'zi torroq sopol idish bo'lsa, xum uncha katta bo'lmagan, kichik xum hisoblanadi [7; 446].

Demak, ushbu izohlar asosida xumcha va xurmachaning tuzilishida, yasallish usulida, ko'rinishida biroz farq bor.

Oltinchidan, ertakda xumcha shavla qaynatishi uchun shart sifatida aytiladigan she'riy parcha berilishida farq bor:

LITERARY CRITICISM

A.Rahmat tarjimasida:

Bir, ikki, uch

– Xurmachada shavla pish.

Boshqa ikkala tarjimada:

Men uchgacha sanasam,

Qayna, sehrli xumcham!

Faqatgina keyingi ikkala tarjimaning birinchisida she'riy satrlar nihoyasi nuqta bilan, ikkinchisida undov belgisi bilan berilgan. Bu esa ularning aytilish ohangida farq borligini ilg'ashga xizmat qiladi.

Mavjud tarjimalar so'z va qo'shimchalarning qo'llanishi nuqtayi nazaridan ham ancha farq qiladi:

A.Rahmat: Onasi bu xurmachaga juda suyundi.	S.To'raxonova: Ona bu xumchani ko'rib quvonibdi.	Noma'lum tarjimon: Ona bu xumchani ko'rib quvonibdi.
--	---	---

Yettinchidan, uchala tarjimonning gap tuzilishini tanlashida o'zgachaliklar bor, ya'ni qaysinisidir sodda yoki murakkablashgan sodda gaplardan, qaysinisidir qo'shma, murakkab qo'shma gaplardan foydalanishi natijasida mikromatnlar hajmi turlicha bo'lib qolgan:

Uy ham shavlaga to'ldi. Uy oldida ham shavla, tomida ham shavla, hatto kochalar ham shavlaga to'ldi, u hamon to'xtamay shavlani pishiraverdi.	Xonaning hammayog'i shovlaga to'lib ketibdi, dahliz ham shovla, peshayvon ham shovla. Xumcha esa hamon pishirayotganmish.	Xonaning hamma yog'i shovlaga to'lib ketibdi: dahliz ham shovla, peshayvon ham shovla. Xumcha hamon pishirayotganmish. Tomlarga ham, hovlilarga ham shovla toshib chiqibdi. Hatto ko'chalardan ham shovla oqayotganmish.
---	---	---

Ertakning tarjima variantlari o'rtasidagi farqlarni quyidagi jadval asosida yanada yorqin kuzatish mumkin:

Ertakning “Bir xurmacha shavla” nomi bilan Adham Rahmat tarjimasi (1938)	Ertakning “Bir xumcha shovla” nomi bilan Surayyo To'raxonova tarjimasi (1978)	Ertakning “Bir xumcha shovla” nomi bilan Tarjimoni ko'rsatilmagan. (2008)
Boshlanishi: “ Bor ekan, yo'q ekan , bir qizcha yashar ekan ”.	Boshlanishi: “ Bir bor ekan, bir yo'q ekan , bir qizcha bo'lgan ekan ”.	Boshlanishi: “Bir bor ekan, bir yo'q ekan, bir qizcha bo'lgan ekan”.
“Qizcha bir kuni o'rmonga maymunjon olib kelish uchun bordi va unda bir kampirni uchratdi .”	“Qizcha meva tergani o'rmonga boribdi-yu, u yerda bir kampirni uchratib qolibdi .”	“Qizcha o'rmonga meva tergani boribdi-yu, u yerda bir kampirni uchratib qolibdi .”
– Salom , – debdi kampir qizchaga , – menga rahm etib maymunjonningdan bersangchi!	– Salom, qizcha , – debdi unga kampir . – Menga mevalaringdan ber, aylanay .	– Salom, qizcha , – debdi unga kampir . – Menga mevalaringdan ber, aylanay .
– Ma, kampir , – debdi, qizcha.	– Oling, buvijon , – debdi, qizcha.	– Oling, momojon , – debdi, qizcha.
Kampir maymunjonni yeb bo'lib :	Kampir mevalardan biroz yebdi-da :	Kampir mevalardan biroz yebdi-da :
– Sen menga maymunjon berding , man ham senga biron narsa sovg'a qilaman , – debdi.	– Menga meva berding, endi senga men ham bir narsa sovg'a qilaman , – debdi.	– Menga meva berding, endi senga ham bir narsa sovg'a qilaman , – debdi.
– Mana senga xurmacha , sen faqat shuni aytishing kerak : Bir, ikki, uch – Xurmachada shavla pish .	– Mana senga xumcha . Faqat: Men uchgacha sanasam, Qayna, sehrli xumcham , – desang bo'ldi .	– Mana senga xumcha . Faqat: Men uchgacha sanasam, Qayna, sehrli xumcham! – desang bo'ldi .
Shunda u shirin, mazali shavla pishaboshlaydi!	U mazali shovla pishira boshlaydi .	U mazali shovla pishira boshlaydi .

LITERARY CRITICISM

Undan so'ng aytasanki: Bir, ikki, uch Pishirishdan kech. Shundan so'ng xurmacha shavla pishirishdan to'xtaydi.	Unga: – Men uchgacha sanasam, Qaynashdan, to'xta xumcham. – desang, u pishirishdan to'xtaydi.	Unga: – Men uchgacha sanasam, Qaynashdan, to'xta xumcham! – desang, u pishirishdan to'xtaydi.
– Rahmat buvi , – dedi qizcha, va xurmachani olib uyiga onasining oldiga ketdi .	– Rahmat, buvijon , – debdi qizcha va xumchani olib uyiga, onasining oldiga ketibdi .	– Rahmat, momojon , – debdi qizcha va xumchani olib uyiga, onasining oldiga ketibdi.
Onasi bu xurmachaga juda suyundi .	Ona bu xumchani ko'rib quvonibdi.	Ona bu xumchani ko'rib quvonibdi.
Minnatsiz , ovorasiz hammavaqt shirin va mazali shavla bo'lsa-yu, tag'in qanday suyunmasin?	Dasturxonda doimo bemashaqqat , betashvish xushxo'r, mazali shovla tayyor turadi-yu, quvonmay bo'larkanmi?	Dasturxonda doimo bemashaqqat, betashvish xushxo'r, mazali shovla tayyor turadi-yu, quvonmay bo'larkanmi?
Bir vaqt qiz qayoqqadir uydan ketdi . Onasi bo'lsa xurmachani o'z oldiga qo'yib: Bir, ikki, uch Xurmachada shavla pish, dedi. U shavla pishiraboshladi.	Bir kuni qizcha qayoqqadir ketgan ekan, ona xumchani oldiga qo'yib: – Men uchgacha sanasam, Qayna, sehrli xumcham, – debdi. Xumcha pishira ketibdi.	Bir kuni qizcha qayoqqadir ketgan ekan, ona xumchani oldiga qo'yib: – Men uchgacha sanasam, Qayna, sehrli xumcham! – debdi. Xumcha pishira ketibdi.
Juda ko'p shavla pishirdi.	Ko'p shovla pishirib yuboribdi.	Ko'p shovla pishirib yuboribdi.
Onasi yedi, juda qorni to'ydi.	Ona yeb qorni to'yib qolibdi.	Ona yeb qorni to'yib qolibdi.
Ammo xurmacha shavlani pishiraverdi.	Xumcha bo'lsa hadeb pishirayotgan emish.	Xumcha bo'lsa hadeb pishirayotgan emish.
Uni qanday qilib to'xtatib bo'ladi?	Qanday qilsa to'xtarkin?	Qanday qilsa to'xtarkin?
Bir, ikki, uch Pishirishdan kech , deyish kerak edi. Lekin onasi bu so'zni esidan chiqarib qo'ygan edi, qizcha esa uyda yo'q edi.	“Men uchgacha sanasam, Qaynashdan, to'xta xumcham”, deyish kerak ekan-u , ona bu so'zlarni unutib qo'ygan ekan.	“Men uchgacha sanasam, Qaynashdan, to'xta xumcham!” deyish kerak ekan-u, ona bu so'zlarni unutib qo'ygan ekan.
Xurmacha hamon shavla pishiraverdi.	Xumcha hadeb pishiraveribdi.	Xumcha hadeb pishiraveribdi.
Uy ham shavlaga to'ldi. Uy oldida ham shavla, tomida ham shavla, hatto ko'chalar ham shavlaga to'ldi, u hamon to'xtamay shavlani pishiraverdi.	Xonaning hammayog'i shovlaga to'lib ketibdi, dahliz ham shovla, peshayvon ham shovla. Xumcha esa hamon pishirayotganmish.	Xonaning hamma yog'i shovlaga to'lib ketibdi: dahliz ham shovla, peshayvon ham shovla. Xumcha hamon pishirayotganmish. Tomlarga ham, hovlilarga ham shovla toshib chiqibdi. Hatto ko'chalardan ham shovla oqayotganmish.
Onasi juda qo'rqdi , qizchasiga yugurdi. Lekin yo'lda issiq shavla daryo bo'lib oqishidan o'tish uning uchun juda og'ir edi.	Ona qo'rqib ketibdi, qizchani chaqirgani yuguribdi, faqat yo'ldan o'tishning sira iloji bo'lmabdi – issiq shovla ariq bo'lib oqib yotgan emish.	Ona qo'rqib ketibdi.
Yaxshi qizchasi uydin uzoqda emas edi.	Xayriyatki, qizcha uydin uncha uzoqda emas ekan.	Xayriyat , qizcha uydin uncha uzoqda emas ekan.
Qizcha ko'chadagi voqeadan xabardor bo'lib darrov uyga yugurdi.	Ko'chada nimalar bo'layotganini ko'rib qolibdi-yu, g'izillagancha uyiga chopibdi.	Ko'chada nimalar bo'layotganini ko'rib qolibdi-yu, g'izillagancha uyga chopibdi.

LITERARY CRITICISM

Juda zo‘r qiyinchilik bilan kelib eshikning xalqasidan ushlab ochdi va Bir, ikki, uch Pishirishdan kech deb qichqirdi.	Bir amallab peshayvonga chiqibdi-da, eshikni ochib qichqiribdi: – Men uchgacha sanasam, Qaynashdan, to‘xta xumcham.	Bir amallab peshayvonga chiqibdi-da, eshikni ochib qichqiribdi: – Men uchgacha sanasam, Qaynashdan, to‘xta xumcham!
Shunda xurmacha shavla pishirishdan to‘xtadi.	Xumcha pishirishdan to‘xtabdi.	Xumcha pishirishdan to‘xtabdi.
Ammo xurmacha shavlani shunday ko‘p pishirdiki, kimning qishloqdan shaharga borishiga to‘g‘ri kelgan bo‘lsa, unga bu shavla shaharga yetgunicha kifoya qilar edi.	Shovlani esa xumcha shuncha ko‘p pishirib yuborgan ekanki, kim shaharga bormoqchi bo‘lsa, shovla yeb, o‘ziga yo‘l ochishi kerak ekan.	Shovlani esa xumcha shunchalik ko‘p pishirib yuborgan ekanki, kim shaharga bormoqchi bo‘lsa, shovla yeb, o‘ziga yo‘l ochishi kerak ekan.
Hech kim bundan shikoyatlanmadi.	Faqat hech kim bundan shikoyat qilmabdi.	Faqat hech kim bundan shikoyat qilmabdi.
Chunki shavla juda shirin va mazali edi.	Shovla xushxo‘r va mazali ekan-da.	Shovla xushxo‘r va mazali ekan-da.

Ko‘rinyaptiki, ikkinchi va uchinchi tarjimada ertak boshlanmasi bir xil keltirilgan. Ularda vaqt noaniqlikni bildiruvchi “bir” so‘zi vositasida aniq ifodalanmagan. Birinchi tarjimada salomlashish holati undalmasiz keltirilgan va salomning kimga qaratilgani kesim orqali ifoda qilingan. Unda -chi so‘roq-taajjub yuklamasi buyruq, iltimos ma’nosida qo‘llangan. U o‘sha davr grammatikasiga ko‘ra so‘zga hozirgiday chiziqli bilan qo‘shilmasdan, to‘ppa-to‘g‘ri qo‘shilib yozilavergan.

Birinchi tarjimada qizchaning yoshi katta insonga “Ma, kampir” deb murojaat qilishi, mentalitetimizga zid hisoblanadi. Ammo keyingi tarjimalarda holat boshqacha. Qizcha kampirga buvijon, momojon undalmasi orqali murojaat qilgan. Buvi va momo so‘zlari adabiy til va sheva nuqtayi nazaridan o‘zaro sinonim bo‘lgani uchun ularni ma’nodoshlikda qo‘llash xatolik sanalmaydi. A.Rahmat tarjimasida “Kampir maymunjonni yeb bo‘lib” jumlasini keltirilar ekan, uning maymunjonlarni to‘liq yeb bitirgani anglatilgan. Keyingi tarjimalarda esa “Kampir mevalardan biroz yebdi-da” deganda, uning mevalardan qisman va kam yegani tushuniladi.

A.Rahmat tarjimasida ko‘makchi fe‘lli fe‘l qo‘shilmalari qo‘shib yozilgan: “Shunda u shirin, mazali shavla **pishaboshlaydi!**”. Yana uning tarjimasida “va” bog‘lovchisidan so‘ng vergul noo‘rin ishlatilgan: “Rahmat buvi, – dedi qizcha, va xurmachani olib uyiga onasining oldiga ketdi. Yoki yana: “U shavla **pishiraboshladi!**”.

Xulosa. Xullas, olmon ertakchilari sifatida nom qozongan aka-uka Grimmlarning juda ko‘p ertaklari o‘zbek tiliga bir marta emas, bir necha martalab goh shoir va yozuvchilar, goh professional mutarjimu olimlar tomonidan turli yillarda tarjima qilinganki, bu tarjimalar biri ikkinchisini inkor qilmagan holda yashab kelmoqda. Bunday tarjima nusxalarining biri ikkinchisini inkor qilmagan holda yonma-yon yashab kelayotgani esa ularni “variant tarjimalar” deb ko‘rsatishga imkon bera oladi.

ADABIYOTLAR:

1. Aka-uka Grimm ertaklari. Adham Rahmat tarjimalari. – O‘zSSR Davlat nashriyoti, 1938. – B.36-38.
2. Aka-uka Grimm ertaklari. Ruschadan Surayyo To‘raxonova tarjimasi. – O‘zLKSM MK “Yosh gvardiya” nashriyoti, 1978. – 447 b.
3. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 5 jildlik. 4-jild. Tartibot-Shukr. – T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2007. – B.565.
4. Yetti oqqush. Olmon xalq ertaklari. Xurram Raximov va Sharifa Salimova tarjimalari. – Toshkent. “Cho‘lpon” nashriyoti, 1991. – 297-298 b.
5. Karimova Dilafruz Halimovna. Variability and invariability in Fairy tales (as the example of the translation of Grimms Fairy Tales). International Journal of Psychosocial Rehabilitation. ISSN: 1475-7192. Volume 27 January 2020. P. 138-144
6. Каримова Дилафруз Халимовна. Вариантность в переводе (на примере произведений Братьев Гримм). Журнал «Вестник науки и образования». Издательство «Проблемы науки». 2019. №4 (58). Част 2. Российский импакт-фактор: 3,58. Научно-методический журнал. Стр 43-46.
7. Ўзбек тилининг изоҳли лугати. 5 жилдлик. 4-жилд. Тартибот-Шукр. – Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2007. – Б.565.